
MANG AZIZ PAXTAKORLAR!" SHIORI OSTIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIR BO'LIB O'TDI.

Ayni kunlarda yurtimiz dalalarida paxta yig'im-terimi mavsumi avj pallaga kirib bormoqda. Ming mashaqqat bilan yetishtirilgan hosilni nes-nobud qilmay yig'ib olish maqsadida terimchilar, ko'ngilli hasharchilar astoydil bel bog'lab mehnat qilishmoqda.

Toshloq tumanida ham paxtakorlar paxta hosilini yig'ib olish ishlarini jadal sur'atda olib borishmoqda. Viloyat hokimligining devonxona mudiri M.Axunjanova hamda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyat bo'limi rahbari M.Sulaymonovlar tumandagi "Durdona Baraka" fermer xo'jaligi dalalariga tashrif buyurishdi. Terim jarayonida ishtirok etayotgan terimchilar bilan suhbat o'tkazib, yaratilgan sharoitlar va qulayliklar bilan yaqindan tanishdilar.

Terimchilarni munosib taqdirlash maqsadida tadbir tashkil etildi. Tadbirda paxta yig'im-terim mavsumida faol ishtirok etganlarga esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-09-27 17:55:31